

52. Uch xonali sonlarni ayirish

Yondosh mavzu:
hunarmandlar

Xonalar bo'yicha amallar
yuzliklar, o'nliklar, birliklar






$$+ + = 15$$

 +  = 25


 +  +  = ?



1. Kulolchilik ustaxonasida sotishga 143 ta lagan tayyor bo'lgan. Agar kun davomida 50 ta mahsulot sotilgan bo'lsa, nechta lagan qoladi?



100



43

Rasm masalani yechishda qanday yordam berishi mumkin?



Agar ayirishda xonada birlik yetmasa, keyingi xonadan bir birlikni olish va uni ushbu xonaning 10 birligiga aylantitish mumkin.

$$\begin{array}{r} \text{• } 10 \\ 258 \\ - 119 \\ \hline 139 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} \text{• } 10 \\ 826 \\ - 372 \\ \hline 454 \end{array}$$


2. Hisoblang, sonlarni o'rish tartibida qo'yib chiqing va Rishton mahsulotlari qoplamasining alohida sirlanishi nima deb atalishini bilib oling.

I $(456 - 173) - 129$

Q $(315 - 120) + 146$

Sh $(556 - 385) + 45$

○ $(987 - 367) - 260$

R $(986 - 259) - 118$

98



3. Uch xonali son ko'inishida tasvirlang va hisoblang.

5 yuzl. 3 o'nl. 8 birl. – (1 yuzl. 4 o'nl. 7 birl. + 2 yuzl. 9 o'nl. 4 birl.)

7 yuzl. 2 oʻnl. 3 birl. – (4 yuzl. 5 oʻnl. 2 birl. + 1 yuzl. 6 oʻnl. 5 birl.)

52. Uch xonali sonlarni ayirish



4. Buxoroda zardo'zlik iplari bilan kashta tikish san'ati shu kungacha saqlanib kelgan. Zardo'z bitta choponga kashta tikishga 145 kun, kavush poyafzaliga kashta tikishga 38 kun sarfladi. Agar chopon, kavush va do'ppi 218 kun davomida tikilsa, u hoida do'ppi tikish uchun necha kun kerak bo'ladi?



5. Tenglamalarni yeching.

$$x + 267 = 985$$

$$y - 156 = 476$$

$$875 - t = 117$$



6. So'zanadagi naqsh bir-birining ustiga joylashtirilgan halqalardan iborat. Har bir halqa bir nechta naqshli doiralardan iborat. Har bir halqadagi doiralarning soni quyida ko'rsatilgan: 6, 9, 15, 24, 36. Oltinchi halqada nechta doira bo'ladi?



7. O'zbekiston amaliy san'at muzeyida 977 ta kashta tikilgan buyumlar namoyish etilmoqda. Ulardan 492 tasi zardo'zlik, qolganlari ipak kashtachiligidir. Muzeyda ipak bilan tikilgan nechta buyum bor?



8. Hisoblang.

$$762 - 245$$

$$528 - 375$$

$$625 - 176$$

$$981 - 716$$

$$917 - 473$$

$$872 - 395$$



9. Rishton kulolchilik ustaxonasida 165 ta lagan, 520 ta piyola va 167 ta ko'za bor. Agar ustaxonada jami 935 ta idish-tovoq bo'lsa, u yerda nechta choynak bor?